

YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM ISLOHOTLARI: MAZMUN, YO‘NALISHLAR VA ISTIQBOLLAR

Kodirov S.

*O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti
Yoshlar masalalari va ma’naviy
ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan muovini*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari tahlil etilgan. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari hamda ularning amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, umumiy o‘rta va oliy ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, raqamlashtirish jarayonlari hamda ta’lim islohotlarining ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Maqolada ta’lim sohasidagi islohotlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismi ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ta’lim islohotlari, normativ-huquqiy asoslar, ta’lim tizimi, inson kapitali, raqamli ta’lim, oliy ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim tizimini tubdan isloh etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning ta’lim olish huquqi kafolatlangan bo‘lib, ushbu huquqni amalda ta’minlash Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda ta’lim sohasiga oid qabul qilingan Prezident farmon va qarorlari ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning normativ-huquqiy asosini tashkil etadi. Mazkur hujjatlarda ta’lim sifati va mazmunini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’limda innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, inson kapitalini rivojlantirish va barqaror taraqqiyotga erishishga xizmat qilmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot modeli davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va ma’naviy hayotni kompleks ravishda modernizatsiya qilishni ko‘zda tutadi. Ushbu jarayonda ta’lim sohasi strategik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Chunki zamonaviy jamiyatda inson kapitali – davlatning eng muhim boyligi hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanmoqda:

- ta’lim sifati va mazmunini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish;
- ta’limda adolat va tenglik tamoyillarini ta’minlash;
- ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish.

Mazkur tamoyillar asosida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida – maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha – tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim islohotlarining eng muhim yo‘nalishlaridan biri umumiy o‘rta ta’lim tizimini modernizatsiya qilish hisoblanadi. Maktab ta’limi jamiyatning kelajak poydevorini yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgani sababli, ushbu sohada sifat va mazmun masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

So‘nggi yillarda umumta’lim maktablarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zamonaviy o‘quv jihozlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlash ishlari kengaytirildi. O‘quv dasturlari va darsliklar qayta ko‘rib chiqilib, ularning mazmuni tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirildi.

Shuningdek, o‘qituvchi shaxsiga bo‘lgan e’tibor kuchaytirildi. Pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish, ularning ijtimoiy mavqeini yuksaltirish va mehnatini munosib rag‘batlantirish Yangi O‘zbekiston ta’lim siyosatining muhim jihatlaridan biridir.

Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi ham chuqur islohotlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Oliy ta’lim muassasalari sonining oshishi, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarning kengaytirilishi yoshlarning oliy ta’limga bo‘lgan imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Oliy ta’limda kredit-modul tizimining joriy etilishi, akademik erkinlik va oliy ta’lim muassasalari avtonomiyasining kengayishi, xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikning rivojlanishi, ilmiy-tadqiqot faoliyatining rag‘batlantirilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlar oliy ta’limning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga, talabalar bilimining amaliyot bilan uzviy bog‘lanishiga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy sharoitda ta’lim sohasini raqamlashtirish Yangi O‘zbekiston ta’lim siyosatining ajralmas qismiga aylandi. Masofaviy ta’lim platformalarining joriy etilishi, elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi ta’lim jarayonining moslashuvchanligini oshirdi.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga joriy etilishi ta’lim olish imkoniyatlarini hududiy jihatdan sezilarli darajada kengaytirdi. Xususan, masofaviy va onlayn ta’lim shakllarining rivojlanishi respublikaning chekka hududlarida istiqomat qiluvchi

yoshlar uchun ham sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratdi. Shu bilan birga, raqamli platformalar orqali bilimlarni baholashning shaffof mexanizmlari shakllanib, o'quv jarayonida adolat va xolislik tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan, jumladan interaktiv darslar, elektron resurslar va raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish ta'lim mazmunining boyishiga hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin hozirladi. Natijada raqamli texnologiyalar ta'limning ochiqligi va samaradorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari nafaqat ta'lim tizimining ichki tuzilmasini, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini ham sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ta'lim sifatining oshishi natijasida yoshlarning mehnat bozoriga moslashuvi kuchayib, ularning bandlik darajasi yuksalmoqda. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatning rivojlanishi bilimga asoslangan iqtisodiyot shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Ta'lim sohasidagi islohotlar jamiyatda ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyillarining mustahkamlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, har bir shaxsning bilim olish va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Kelgusida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilg'or xalqaro tajribalarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish Yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda ta'lim islohotlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar Yangi O'zbekistonning barqaror va uzoq muddatli taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. Abdurahmonov Q.X. Inson kapitali va ta'lim taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2021.

6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistik agentlik ma'lumotlari. – Toshkent, 2022–2024.
8. Ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent, 2023.